

“ADIBLAR XIYOBONI - MA'NAVIYAT MASKANI” VEB-SAYTI LOYIHASINING AHAMIYATI

ЗНАЧЕНИЕ ПРОЕКТА СОЗДАНИЯ ВЕБ-САЙТА “АЛЛЕЯ ПИСАТЕЛЕЙ – ИСТОЧНИК ДУХОВНОСТИ”

SIGNIFICANCE OF THE PROJECT OF CREATING THE WEBSITE “ALLEY OF WRITERS – A SOURCE OF SPIRITUALITY”

Xodjayeve MAVLUDA SABIROVNA
INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF

UZBEKISTAN, candidate of technical sciences, docent of the “Modern information and communication technologies”. xodjayeve59@gmail.com II, A.Kadiri, Tashkent, 100011, Uzbekistan.

Turopova NILUFAR ILKHOMOVNA
INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF
UZBEKISTAN,

Master degree student at the Department of “Modern Information and communication technologies”
e-mail: nilufar.turopova04@gmail.com

DOI: 10.47980/IIAU/2022/2/10

Annotatsiya: Maqola Adiblar xiyoboni yagona interaktiv portali veb-saytini ishlab chiqishga bag'ishlangan bo'lib, asosiy ko'zlangan maqsad – Adiblar xiyobonida qad rostlagan adabiyot nomoyondalari ilmiy va ijodiy faoliyatini bugungi kun zamonaviy veb-dasturlash sohasi imkoniyatlari bilan raqamlashtirishdan iboratdir. Unda milliy adabiyotimiz xazinasini internetda targ'ib etish, zamonaviy texnologiya va dasturiy ta'minot sohasida ma'lumotlarni ulashishning eng qulay, tezkor va samarali uslublaridan foydalanish masalasi ko'rilgan. Bunda Adiblar xiyoboni veb-saytini yaratish va unda Adiblar xiyobonidagi barcha shoir va mutafakkirlar hayoti, ijodidagi boy ilmiy merosini yahlit bir tizimda umumlashtirish, loyihani ishlab chiqishni bir necha bosqichlarda amalga oshirish, ya'ni, veb-saytini ishlab chiqish jarayoni bosqichlarini aniq vaqtlari bilan rejalashtirish uchun GanttPRO diagrammasi, rejalashtirish, sayt xaritasi va vireframe yaratish, dizayn, sahifalar tartibi, ularni ko'rib chiqish va tasdiqlash davri, kontentni yozish va yig'ish, zamonaviy dasturlash texnologiyalaridan Python dasturlash tilining Django frameworki dan foydalanish, ishlab chiqilgan loyihani sinovdan o'tkazish, ko'rib chiqish va ishga tushirish, xizmat bosqichida fikrni monitoring qilish, muntazam yangilash jarayonlari keltirilgan. Shuningdek, Veb-sayt mijoz va server qismini yaratish uchun foydalaniladigan texnologiyalar: Veb-saytning foydalanuvchi to'g'ri-ridan-to'g'ri

muloqot qiladigan qismi “Frontend”dan, u ilovaning “mijoz tomoni”, veb-saytning server tomoni qismi uchun Backend texnologiyasidan foydalanish, Adiblar xiyoboni veb-sayti va uning ma'lumotlar bazasi xavfsizligi ta'minlash modeli, uning asosiy elementi, ishlab chiqariladigan tizim xavfsizligi siyosatining forma spetsifikatsiyasini (tafsilotlarini ro'yxatini) tuzish, himoya vositalarini amalga oshirish mexanizmlarini belgilovchi himoyalangan tizim arxitekturasining bazaviy prinsiplarini tanlash va asoslash jarayonlari bayon etilgan.

Zamonaviy texnologiya va dasturiy ta'minot sohasida ma'lumotlarni ulashishning eng qulay, tezkor va samarali uslubi shubhasiz internet va veb ilovalar hisoblanadi. Natijada, adiblar xiyobonidagi adabiyotimizning yirik namoyondalari ilmiy ijodini keng targ'ib etish uchun veb ilovalarga bo'lgan ehtiyoj ortadi.

Kalit so'zlar: ma'lumotlar bazasi, mijoz qism, server qism, informativ modeli, loyiha, sayt xaritasi, ma'lumotlar xavfsizligi.

Аннотация: Самый удобный, быстрый и эффективный способ обмена данными в условиях современных технологий и программного обеспечения — это, без сомнения, интернет и веб-приложения, которые созданы для популяризации научной деятельности великих деятелей нашей литературы на Аллее писателей.

Статья посвящена разработке единого интерактивного портала-сайта Аллеи писателей, основной целью которого является оцифровка научной и творческой деятельности литераторов Аллеи писателей, с использованием возможностей современного веб-программирования. В нем решаются вопросы продвижения сокровищницы нашей национальной литературы в сети интернет, использования наиболее удобных, быстрых и эффективных способов обмена информацией в области современных технологий, программного обеспечения. Для создания сайта Аллеи писателей в рамках единой системы, информация о жизни всех поэтов и мыслителей, писателей, богатом научном наследии и их творчестве, обобщена в проект, который будет реализован в нескольких этапах и предполагает разработку веб-сайта в режиме реального времени с использованием диаграммы GanttPRO, планирования и создания карты сайта и Vireframe, дизайн, верстку страниц, сроки их рассмотрения и утверждения, написание и сбор контента, использование современных технологий программирования, языков программирования Python, Frameworki Django, тестирование и передача проекта, проверка и ввод в эксплуатацию, мониторинг обратной связи на этапе обслуживания и регулярные процессы обновления.

Кроме того, приводятся технологии, используемые для создания клиентской и серверной части веб-сайта: часть веб-сайта, где пользователь общается напрямую, находится на Frontend, который является «клиентской стороной» приложения, для серверной части веб-сайта использование технологии Backend, модели безопасности веб-сайта «Аллея писателей» и его базы данных, ее основного контента, описаны меры защиты и обоснования спецификации формы (перечень реквизитов)

разрабатываемой политики безопасности системы, выбор основных принципов архитектуры защищенной системы и механизмов реализации.

Ключевые слова: база данных, клиентский раздел, серверный раздел, информационная модель, проект, карта сайта, безопасность данных.

Abstract: The most convenient, fast, and efficient way to exchange data in modern technologies and software is, without a doubt, the Internet and web applications that are used to popularize the scientific activities of the main figures of our literature on the Writers' Alley.

The article is devoted to the creation of a single interactive portal site, the purpose of which is to digitize the information about the scientific and creative activities of the writers of the Alley of Writers, with the capabilities of modern web programming. It addresses the issues of promoting the treasury of our national literature on the Internet, using the most convenient, fast, and efficient ways of modern technologies and software.

To create the Alley of Writers website and generalize it into a single system, the information about the legacy of all poets and thinkers, writers, and their rich scientific heritage is summarized in a project (in several stages). These processes include real-time website development using a GanttPRO diagram, planning, creating a sitemap and Wireframe, design, page layout, writing and collecting. We provide the information about the main content of the project, using modern programming technologies, Python programming language, Framework Django, testing developed design handover, verification, commissioning, feedback monitoring during the maintenance phase, and regular update processes.

In addition, the technologies used to create the client and server side of the website are given: the part of the website where the user communicates directly is on the Frontend, which is the "client-side" of the application, for the server side of the website, the use of the Backend technologies, the security model of the "Writers' Alley" website and its database, its main element, the specification of the form (list of details) of the system security policy being developed, the choice of the basic principles of the secure system architecture, the definition of implementation mechanisms, protection measures and justification processes are described.

Keywords: database, client section, server section, information model, project, sitemap, data security.

KIRISH

Yosh avlod o'rtasida atoqli adiblar va mutafakkirlar ijodini keng targ'ib qilish, ularni adabiyot sohasiga qiziqtirish va adiblar xiyoboni faoliyatini yana-da rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi 2020-yil 24-avgustda "Atoqli adiblar va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini yoshlar o'rtasida targ'ib qilish hamda adiblar xiyobonidan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida" 502-sonli qaroriga ko'ra adiblar xiyobonidagi har

bir atoqli adib hayoti va ijodini chuqur o'rganish O'zbekistondagi nufuzli oliy ta'lim muassasalariga bo'lib berildi. Natijada, ko'plab adiblarning boy ilmiy merosi, hayoti va ijodi chuqur o'rganilib, yosh avloga yetkazib berish jarayoni yana-da rivojlandi.

Dunyoning bir chekkasidagi axborot dunyoning narigi bir nuqtasiga millisekundlarda yetib borib turgan, fan va texnologiyaning shiddat bilan rivojlanib, inson hayotini o'rab turgan barcha ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jabhalar sekin-astalik bilan raqamli texnologiyalarga integratsiya qilinayotgan bir vaqtda nafaqat ta'lim sohasi balki atoqli yozuvchi va mutafakkirlar boy ilmiy merosi targ'iboti ham zamonaviy texnologiyalarsiz kutilgan natijalarni bermasligi turgan gap. Chunki, bugun yosh avlod soatlab kutubxonalarda vaqt sarflashdan ko'ra, o'zlariga kerakli ma'lumotlarni internet tarmog'i orqali izlashni ma'qul ko'rishayotganligi rad etib bo'lmaz haqiqat hisoblanadi. "Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning so'zlari bilan aytganda, "Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadigan oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur" (I.A. Karimov., 2008:53) Demak, til va adabiyot millat ruhining asosiy quvvat manbaalaridan biri ekan, hozirgi sharoitda uni yanada rivojlantirish, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodga yetkazish uchun bevosida internet va texnologiya aralashuvi talab etiladi.

Biz zamonaviy texnologiya imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda, adabiyotimiz rivojiga hissa qo'shgan atoqli ijodkorlarimiz boy ilmiy merosini nafaqat yurtimizda, balki butun dunyoda keng targ'ib qilish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Zamonaviy texnologiya va dasturiy ta'minot sohasida ma'lumotlarni ulashishning eng qulay, tezkor va samarali uslubi shubhasiz internet va veb ilovalar hisoblanadi. Natijada, adiblar xiyobonidagi adabiyotimizning yirik namoyondalari ilmiy ijodini keng targ'ib etish uchun veb ilovalarga ehtiyoj tug'iladi. Shu o'rinda, 2020-yil 20-may kuni yurtboshimiz Adiblar xiyoboni va xiyobon yonidagi kutubxonaga tashrifi chog'ida bugungi yoshlar internet va elektron adabiyotlardan ko'proq foydalanishi, lekin milliy adabiyot xazinasini internetda targ'ib etish yaxshi yo'lga qo'yilmagani ko'rsatib o'tildi. Bugungi texnologiyalarining shiddatli rivojlanish jarayoni insoniyat hayotining barcha sohalarini va uning yashash tarzini tubdan o'zgartirib yubordi. Kecha ajdodlarimiz uchun aql bovar qilmas jarayonlar, bugun birorta ham tugmaga ega bo'lmagan smart telefonlari orqali amalga oshirilmoqda. Texnikaning bunday rivojlanishi inson hayotiga ko'plab yengilliklar bilan muammolarni ham yetaklab keldi. Bugun, yoshlar o'zlikni anglash va o'zini shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadigan ajdodlarimizning boy ilmiy merosini

o'rganish, ulardan ibrat olish va tegishli xulosalar chiqarishdan ko'ra internet va ijtimoiy tarmoqlarda vaqt o'tkazishni avfzal ko'rishmoqda. Natijada, bugungi ta'lim sohasi yanada samarali bo'lishi va millat kelajagi hisoblangan yoshlarni milliy qadryatlarimizdan chetlashmagan holda yetuk kadr sifatida tarbiyalash uchun texnologiya va internet ko'magidan samarali foydalanish ehtiyojini keltirib chiqaradi. Bu jarayonni millat o'zligini ifodalovchi adabiyot sohasidan boshlash ayni muddaodir.

Ma'lumki, adabiyot har bir xalqning o'tmishi, buguni va kelajagini bog'lovchi ta'sir kuchiga ega muhim vositadir. Unda har bitta millatning madaniyati, urf-odati, dunyoqarashi, ma'naviyati aks etadi. Shu bois mamlakatimizda adabiyot va san'at sohasiga oid qator islohotlar olib borilmoqda. Hususan, 2020-yil 26-maydagi O'zbekiston respublikasi prezidentining "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora tadbirlari to'g'risidagi" farmoni va shu yilning 24-avgust sanasida "Atoqli adiblar va mutafakkirlar ijodiy merosini yoshlar o'rtasida targ'ib qilish hamda adiblar xiyobonidan samarali foydalanish chora tadbirlari to'g'risida" vazirlar mahkamasining 502-sonli qarorlari yuqoridagi fikrimizning yaqqol isboti bo'la oladi.

Bundan 5 yil oldin ana shunday maqsadlarga xizmat qiluvchi yana bir yirik loyihaga qo'l urilgan edi. Davlatimiz rahbarining 2017-yil 18-aprelda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'ida Adiblar xiyoboni tashkil etish bo'yicha qarori qabul qilindi. Qarorga ko'ra xiyobonning me'moriy-g'oyaviy loyihasi ishlab chiqildi. Majmuaviy tarzda olib borilgan bunyodkorlik ishlari natijasida poytaxtimiz markazidagi Adiblar xiyobonining yaxlit me'moriy ansambli yaratildi (Babaxodjayev S: 2020). Qisqa muddat ichida Alisher Navoiy haykali yonida jami 23 ta atoqli shoir va mutafakkirlarning haykallari mantiqiy yechim asosida qad rostladi. O'tgan vaqt mobaynida xiyobon ko'rinishini yanada boyitish va adiblar xotirasini e'zozlash maqsadida Bobur, Ogahiy, Berdaq, Muqimiy, Furqat, Behbudiy, Avloniy, Cho'lpon, Qodiriy, To'lepbergen Qayipbergenov, Ibroyim Yusupov, Aleksandr Faynberg singari atoqli namoyandalar haykallari qaytadan yangilandi. 2020-yilning 20-mayida yurtboshimizning adiblar xiyoboniga navbatdagi tashrifida o'tgan yillar davomidagi obodonlashtirish ishlari ko'zdan kechirildi. Yozuvchi va shoirlar, ziyolilar bilan uchrashuvda milliy adabiyotni rivojlantirishga qaratilayotgan e'tibor, galdagi muhim vazifalar haqida so'z bordi.

"Adabiyot xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o'rganish, buyuk madaniyatimizga

munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz", — dedi Shavkat Mirziyoyev (Sh. Mirziyoyev: 2020).

Shu o'rinda Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarini rivojlantirish agentligi tizimidagi ta'lim dargohlarida yurtimizdagi malakali kadrlar hamda xorijlik mutaxassislar bolalarga interaktiv tarzda chuqurlashtirilgan bilim berishmoqda. Yangi barpo etilgan xiyobon esa iste'dodli, ijodkor o'quvchilarimiz uchun ham katta sovg'a bo'ldi.

Bugungi yoshlar internetdan, elektron adabiyotlardan ko'proq foydalanishi inobatga olsak, milliy adabiyotimiz xazinasini internetda targ'ib etish eng samarali usul hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda adabiy portallar yaratish ham muhim vazifalardan sanaladi. Unda mumtoz va zamonaviy asarlarning elektron nusxalari, yozuvchi va adabiyotshunoslarning mahorat saboqlari jamlanadi. Portal o'zbek, ingliz va rus tillarida faoliyat ko'rsatsa, undan xorijlik muxlis va mutaxassislar ham foydalanishi imkoniyati yaratiladi. Natijada, bugungi kun yoshlarining shaxsni shakllantirish jarayonida adabiyotshunoslik va kitobxonlik kabi muhim omillarga katta e'tibor qaratilgan bo'ladi.

Yurtboshimiz tashabbuslari bilan olib borilayotgan cheksiz islohotlar va qonun ustivorligi asosida chiqarilayotgan qarorlarning o'zi O'zbek millatining fan va adabiyot sohasiga bo'lgan e'tiborni yaqqol ochib bera oladi. Bugungi kunda qariyb 9 gektar maydoni egallagan poytaxtimizning eng odam gavjum hududida joylashgan adiblar xiyoboni maydoni chinakam adabiyot ixlosmandalari uchun adabiy quvvat va ilhom baxsh eta oladigan maskanga aylanib ulgurdi. Ammo, yurtimizning chekka hududlaridagi barcha adabiyot soha ixlosmandlarining ham bu yerga tashrif buyurib poytaxt yoshlari har kuni foydalana oladigan imkoniyatlardan to'la foydalanishga imkoniyatlari yo'q. Butun dunyo, ma'lumot izlash va undan foydalanish uchun internet va veb saytlarni asosiy omil qilib turgan bir vaqtda adiblar xiyoboni yagona interfaol portalini yaratish va ushbu xiyobon faoliyatini raqamlashtirish orqali yuqoridagi muammoga yechim topiladi. Natijada, adiblar xiyoboni va unda qad rostlagan buyuk shoir mutafakkirlar boy ilmiy merosini o'rganish va ularni nafaqat yurtimizning chekka hududlaridagi balki butun dunyo adabiyot soha ixlosmandlariga yetkazib berish uchun ham prezidentimiz takidlaganlaridek adiblar xiyoboni yagona interaktiv portalini yaratish mavzusi o'ta dolzarb hisoblanadi.

Adabiyot - millat ko'zgusi, xalqning orzu-istaklari va dunyoqarashini ifoda eta oladigan muhim soha. Adabiyotni rivojlantirish unga bo'lgan e'tiborni kuchaytirish - millatni rivojlantirish, millat ertasiga bo'lgan e'tiborni kuchaytirish demakdir. Shu o'rinda,

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi 502-sonli qarori 2-ilovasiga ko'ra Adiblar xiyobonida haykallari o'rnatilgan atqli yozuvchi va shoirlarning ibratli hayoti va ijodini chuqur o'rganish hamda targ'ib qilish bo'yicha oliy ta'lim muassasalarini birlashtirish ro'yxati ishlab chiqilib tasdiqlanishi ham yurtimizda adabiyot sohasini o'rganish va uni yoshlar orasida keng targ'ib qilinishiga alohida e'tibor qaratilishidan dalolatdir. O'zbekistonning nufuzli 24 oliy yurtiga berilgan shoir va mutafakkirlar hayoti va ijodi chuqur o'rganilmoqda va ba'zi oliy o'quv yurtlari tomonidan ushbu atqli yozuvchilar hayoti va ijodini aks ettiruvchi veb-saytlar ham ishga tushirilgan. Lekin, adiblar xiyoboni faoliyati unda bo'layotgan yangiliklar va har bir yozuvchi hayoti va ijodi haqida batafsil o'qib o'rganish uchun yagona sayt yoki portal mavjud emas. Bundan tashqari ushbu xiyobon yaratilish tarixi va haykallarning yaratilishi va mualliflari haqida ham internetdan kerakli ma'lumotlarni topish biroz mushkul vazifa hisoblanadi (Xodjajeva M: 2022).

LOYIHANI ISHLAB CHIQISH BOSQICHLARI

Fan va adabiyot sohasi uchun boy ilmiy merosga ega adiblar xiyoboni veb-saytini yaratish va uning ma'lumotlar bazasi xavfsizligini ta'minlash uchun quyidagi vazifalarni bajarish ko'zda tutilgan.

- Veb-saytlarning ajdodlar merosi va boy ilmiy faoliyatini yosh avlodga yetkazib berishda xizmat qilayotgan veb-saytlarni tahlil qilish;
- Adiblar xiyoboni veb-saytini yaratish va unda adiblar xiyobonidagi barcha shoir va mutafakkirlar hayoti, ijodidagi boy ilmiy merosini yahlit bir tizimda umumlashtirish;
- Ma'lumotlar bazasi tushunchasi va uni tasniflash;
- Ma'lumotlar bazasiga nisbatan uchraydigan axborot xavfsizligi hujumlarini o'rganish va tahlil qilish;
- Veb-ilovalar va ma'lumotlar bazasining o'zaro bog'lanish algoritmlarini, tashqi va ichki hujumlarga nisbatan zaifliklarini tahlil qilish;
- Veb-ilovalarda ma'lumotlar bazasi xavfsizlik ta'minlash algoritmlarini tahlil qilish va adiblar xiyoboni veb-sayti ma'lumotlar bazasi xavfsizligini taminlash uchun kompleks yechim taklif qilish;

Adiblar xiyoboni yagona interaktiv portali veb-saytini ishlab chiqishdan asosiy ko'zlangan maqsad adiblar xiyobonida qad rostlagan adabiyot nomoyondalari ilmiy va ijodiy faoliyatini bugungi kun zamonaviy veb-dasturlash sohasi imkoniyatlari bilan raqamlashtirishdan iboratdir. O'zbekiston milliy adabiyotini rivojlantirish, hiyobonga tashrif buyuruvchilar sonini yanada oshirish va yetuk adabiyot soha nomoyondalari ijodini yoshlar orasida yanada targ'ib qilish maqsadida ishlab

chiqilayotgan ushbu hiyobon va unda haykallari qad rostlagan atqli yozuvchilar haqida batafsil ma'lumotni o'z ichiga oladi. Ushbu sayt hiyobonga tashrif buyuruvchilar uchun to'g'ri va aniq ma'lumot beruvchi gid sifatida yoki adiblar xiyoboni haqida ma'sofaviy ma'lumo beruvchi interaktiv portal sifatida faoliyat yuritishi maqsad qilingan.

Adiblar xiyoboni veb-saytini ishlab chiqish jarayoni bosqichlarini aniq vaqtlari bilan rejalashtirish uchun GanttPRO diagrammasidan foydalanishni afzal ko'rdik.


GanttPRO - loyihalarni boshqarishning kuchli veb-ilovasi yordamida loyihalarni rejalashtirish va boshqarish imkoniyatini beradi. Bu bitta odam yoki katta kompaniya uchun bo'ladimi, har qanday rejalarni yaratish va muvaffaqiyatli boshqarish uchun ajoyib vosita hisoblanadi. (GantPRO., 2022)

Loyihani boshqarish uchun ushbu ilova jamoa a'zolari o'rtasida samarali hamkorlikni yaratadi. Uning yordami bilan barcha jarayonlar va taraqqiyot aniq belgilangan va muddatlar hech qanday kechikishsiz bajariladi.

Ushbu loyiha menejeri ilovasida hamma narsa qanday ishlashini va har bir jarayon amalga oshirilish vaqtini alohida o'rganish uchun soatlab vaqt sarflashining hojati yo'q. GanttPro dan samarali foydalanishni o'rganish uchun bir necha soat yetarli bo'ladi.

Ilova Mac, Windows va Linux kabi barcha asosiy operatsion tizimlarda muammosiz ishlaydi va barcha brauzerlar uchun foydalanishga yaroqli hisoblanadi: Google Chrome, Mozilla Firefox, Opera, IE va boshqalar.

Adiblar xiyoboni veb-saytini ishlab chiqish va uni loyihalashtirish bosqichlari ham GanttPro dasturidan foydalangan holda ishlab chiqildi.



1-rasm: Adiblar xiyoboni veb-saytini ishlab chiqish jarayoning gantt diagrammasi

1-bosqich. Ma'lumot to'plash: maqsad, asosiy maqsadlar va maqsadli auditoriya.

Bu bosqich, ya'ni kashf qilish va tadqiq qilish bosqichi keyingi bosqichlarning qanday ko'rinishini belgilaydi. Bu nuqtada eng muhim vazifa veb-

saytning kelajakdagi maqsadlari, erishmoqchi bo'lgan asosiy maqsadlar va saytingizga jalb qilmoqchi bo'lgan maqsadli auditoriya haqida aniq tushunchaga ega bo'lishdir. Bunday veb-saytni ishlab chiqish so'rovnomasi keyingi loyihalarni boshqarish uchun eng yaxshi strategiyani ishlab chiqishga yordam beradi.

Yangiliklar portali ko'ngilochar veb-saytlardan farq qiladi va o'smirlar uchun onlayn resurslar kattalar uchun saytlardan farq qiladi. Har xil turdagi veb-saytlar tashrif buyuruvchilarga turli xil funksiyalarni taqdim etadi, ya'ni maqsadlarga qarab turli texnologiyalardan foydalanish kerak. Ushbu ishlab chiqishdan oldingi ma'lumotlarga asoslangan yaxshi tavsiflangan va batafsil reja kutilmagan muammolarni hal qilish uchun qo'shimcha resurslarni sarflashdan himoya qilishi mumkin, masalan, dizaynni o'zgartirish yoki dastlab rejalashtirilmagan funksiyalarni qo'shish.

2-Bosqich. Rejalashtirish: Sayt xaritasi va vireframe yaratish.

Veb-saytni ishlab chiqish siklining ushbu bosqichida ishlab chiquvchi mijozga butun sayt qanday ko'rinishini baholashga imkon beradigan ma'lumotlarni yaratadi. Oldingi bosqichda to'plangan ma'lumotlarga asoslanib, sayt xaritasi yaratiladi.

Loyiha ishlab chiqishdan avval uning veb-sayt foydalanish xaritasi chizib chiqiladi.

Shu xarita asosida veb-sayt dizayni yaratilib undan so'ng frontend dasturiy ta'minot qismi ishlab chiqiladi. Adiblar xiyoboni veb-sayti strukturaviy xaritasi 1-rasmda keltirib o'tilgan.

Sayt xaritasi veb-saytning asosiy yo'nalishlari o'rtasidagi munosabatlarni tavsiflashi kerak. Bunday taqdimot yakuniy mahsulot qanchalik foydali bo'lishini tushunishga yordam beradi. Bu veb-saytning turli sahifalari o'rtasidagi "munosabatni" ko'rsatishi mumkin, shuning uchun oxirgi foydalanuvchi asosiy sahifadan boshlasa, kerakli ma'lumot yoki xizmatni topish qanchalik oson bo'lishini baholashingiz mumkin. Sayt xaritasini yaratishning asosiy sababi foydalanuvchilarga qulay va oson harakatlanadigan veb-sayt yaratishdir.

Sayt xaritasi veb-saytning ichki tuzilishi qanday ko'rinishini tushunishga imkon beradi, lekin foydalanuvchi interfeysini tasvirlamaydi. Ba'zan, kodlashni yoki hatto dizayn ustida ishlashni boshlashdan oldin, mijozdan hamma narsa yaxshi ko'rinishini tasdiqlashi kerak, shunda rivojlanishning keyingi bosqichini boshlash mumkin bo'ladi. Bunday holda, simli ramka yoki maket yaratiladi.

Vireframe - bu yaratilishi kerak bo'lgan foydalanuvchi interfeysining vizual ko'rinishi. Lekin u ranglar, logotiplar va boshqalar kabi dizayn elementlarini o'z ichiga olmaydi. U faqat sahifaga qo'shiladigan elementlarni va ularning joylashuvini tavsiflaydi. (Jane Hannah:2021).

3-bosqich. Dizayn: Sahifalar tartibi, ko'rib chiqish va tasdiqlash davri

Dizayn bosqichida veb-sayt shakllanadi. Tasvirlar, fotosuratlar va videolar kabi barcha vizual kontent ushbu bosqichda yaratiladi. Yana bir bor, birinchi bosqichda to'plangan barcha ma'lumotlar juda muhim. Dizayn ustida ishlashda mijoz va maqsadli auditoriyani yodda tutish kerak.

Veb-sayt dizayni dizayner ishi natijasidir. Bu grafik eskiz yoki haqiqiy grafik dizayn bo'lishi mumkin. Tartibning asosiy vazifasi axborot strukturasini ifodalash, tarkibni vizual tarzda ko'rsatish va asosiy funkcionallikni namoyish etishdan iborat. Layouts ranglar, logotiplar, tasvirlarni o'z ichiga oladi va kelajakdagi mahsulot haqida umumiy tushuncha berishi mumkin.

Shundan so'ng, mijoz tartibni ko'rib chiqishi va o'z fikr-mulohazalarini yuborishi mumkin.

4-bosqich. Kontentni yozish va yig'ish

Kontentni yozish va kompilyatsiya qilish odatda veb-sayt yaratishning boshqa bosqichlari bilan mos keladi va uning rolini e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Ushbu bosqichda veb-sayt auditoriyasiga etkazmoqchi bo'lgan mohiyatingizni yozma ravishda yozib qo'yish va harakatga chaqiruvlarni qo'shish kerak. Kontent yozish, shuningdek, diqqatga sazovor sarlavhalar yaratish, matnni tahrirlash, yangi matn yozish, mavjud matnni tuzish va h.k.larni o'z ichiga oladi, bu vaqt va kuch talab qiladi. Qoida tariqasida, mijoz saytga ko'chib o'tishga tayyor veb-sayt tarkibini taqdim etish majburiyatini oladi. Veb-sayt kodlashdan oldin yoki davomida barcha veb-sayt tarkibi taqdim etilganda yaxshiroqdir.

5-bosqich. Dasturlash

Ushbu bosqichda nihoyat veb-saytni yaratishni boshlash mumkin. Haqiqiy veb-sayt yaratish uchun oldingi bosqichlarda ishlab chiqilgan grafik elementlardan foydalanish kerak. Odatda, avval sayt xaritasi shaklida yaratilgan veb-sayt ierarxiyasiga ko'ra, avval bosh sahifa yaratiladi, so'ngra barcha pastki sahifalar qo'shiladi. Server o'rnatish va sozlashni muammosiz bajara olishiga ishonch hosil qilish uchun ramkalar va CMS amalga oshirilishi kerak.

Maket va maketni yaratish jarayonida yaratilgan barcha statik veb-sahifa elementlari yaratilishi va sinovdan o'tkazilishi kerak. Keyinchalik, maxsus xususiyatlar va interaktivlik qo'shilishi kerak. Ushbu bosqichda foydalanmoqchi bo'lgan har bir veb-sayt yaratish texnologiyasini chuqur tushunish juda muhimdir.

6-bosqich. Sinov, ko'rib chiqish va ishga tushirish

Sinov, ehtimol, jarayonning eng muntazam qismidir. Har bir havola, ular orasida singanlar yo'qligiga ishonch hosil qilish uchun sinovdan o'tkazilishi kerak. Xar bir


shaklni, har bir skriptni tekshirish, mumkin bo'lgan matn terish xatolarini topish uchun imloni tekshirish dasturini ishga tushirish kerak. Kodingiz joriy veb-standartlarga mos kelishini tekshirish uchun kod tekshiruvchilaridan foydalaniladi. Yaroqli kod, masalan, brauzerlararo muvofiqligi uchun juda muhim bo'ladi.

7-bosqich. Xizmat: fikrni monitoring qilish va muntazam yangilash

Esda tutish kerak bo'lgan narsa shundaki, veb-sayt mahsulotdan ko'ra ko'proq xizmatdir. Veb-saytni foydalanuvchiga "etkazib berish" etarli emas. Bundan tashqari, hamma narsa yaxshi ishlayotganiga ishonch hosil qilish kerak va hamma qoniqarli, har doim boshqa holatda o'zgartirish kiritishga tayyor bo'lish lozim.

Saytga qo'shilgan qayta aloqa tizimi oxirgi foydalanuvchilar duch kelishi mumkin bo'lgan muammolarni aniqlash imkonini beradi. Bunday holda, eng muhim vazifa muammoni imkon qadar tezroq hal qilishdir. Agar shunday qilinmasa, bir kun kelib foydalanuvchilar noqulayliklarga dosh berishdan ko'ra boshqa veb-saytdan foydalanishni afzal ko'rishlarini bilib olish mumkin.

Yana bir muhim jihat - veb-saytni yangilab turish. Agar CMS dan foydalanilsa, muntazam yangilanishlar xatolardan saqlaydi va xavfsizlik xavfini kamaytiradi.



2-rasm: Adiblar xiyoboni veb-sayti struktura xaritasi

Unga ko'ra veb-sayt quyidagi menyularga ega bo'ladi:

Yozuvchilar

- Alisher Navoiy
- Zahiriddin Muhammad Bobur
- Furqat
- Muhammad Rizo Ogahiy
- Muqumiy
- Berdaq

(Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Zulfiya, Oybek, Maqsud Shayxzoda, Abdulla Qahhor, Said Ahmad va Said

Zunnunova, To'lepbergen Kaipberganov, Ibrohim Yusupov, Erkin Vohidov, Ozod Sharafiddinov, Abdulla Oripov, Aleksandr Faynberg, Mahammad Yusuf)

Adiblar xiyoboni xaritasi

Yangiliklar va tadbirlar

Ilmiy maqolalar va bloglar

Foto va videogaleriya

Virtual sayohat (3D)


Majmua haqida

Adiblar xiyoboni veb-sayti wireframe loyihasi mockups yordamida ishlab chiqildi va uning ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:



3-rasm: Adiblar xiyoboni veb-sayti wireframe ko'rinishi

Adiblar xiyoboni veb-sayti dizayni figma yordamida ishlab chiqildi:



4-rasm: Adiblar xiyoboni veb-sayti dizayni ko'rinishi

XULOSA

Adiblar xiyoboni portalini ishga tushurish orqali biz ko'plab ijobiy natijalarga erishishimiz mumkin bo'ladi:

✓ kitobxonlik va adabiyot sohasiga bo'lgan qiziqishni oshirish, yoshlarni ko'proq mutoaala qilishga buyuk mutaffakirlar hayoti va ijodi misolida targ'ib qilish;

✓ 24 ta oliygohga biriktirilgan shoir mutaffakirlar hayoti ijodini yagona interfaol tizimga birlashtirish orqali ushbu oliygoh talabalari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar, ma'lumotlar va shoir-mutafakkir sharafiga uyishtirilgan tadbirlarni yoritib borish imkoniyati;

✓ adiblar xiyoboni, undagi yozuvchilar hayoti va ijodini masofaviy o'rganish imkoniyatini yaratib berish;

✓ adiblar xiyobonida nomi ulug'langan shoir va yozuvchilar tanlangan asarlarini sifatli tarzda yuklab olish imkoniyati;

✓ fan va adabiyot sohasiga oid bloglar va maqolalar bilan tanishish;

✓ adiblar xiyoboni elektron xaritasini yaratish va undagi yozuvchilar uyishmasi va Toshkent shahri tarixiga oid muzey faoliyati haqida ma'lumotga ega bo'lish.

✓ adiblar xiyoboniga virtual sayohatni amalga oshirish imkoniyati.

Yuqoridagi barcha imkoniyatlarga birgina adiblar xiyoboni veb-saytini ishlab chiqish va uni ommalashtirish orqali erishish mumkin.

Shuningdek, adiblar xiyobonida faoliyat yuritayotgan Toshkent muzeyi va yozuvchilar uyishmasi saytlarini shu bilan bir qatorda oliy ta'lim muassasalari tomonidan atqili yozuvchi va shoirlar hayotiga bag'ishlangan saytlarni yagona adiblar xiyoboni portaliga birlashtirish mumkin bo'ladi.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Almutairi, Abdulrahman Hamed, and Abdulrahman Helal Aluwaili (2012) "Security in database security.global journal of computer science & technology network, web security." 2012. Pages 9-13.
- Boyens C., G'unther O (2002) "Trust is not enough: privacy and security in asp and web service environments." Volume 2435 of Lecture Notes In Computer Science. (2002)
- Duraeva Rano Bahrambekovna, Xodjayeva Mavluda, Kabulov Rustam, Alimjon Dadamuhamedov, Mukhammadiev Alisher "Personality-oriented learning technologies" (2019) Internatinal Journal of Recent Technology and Engineering (IJRTE) ISSN: 2277-3878, Volume-8 Issue-4, November 2019
- Singh, Neha, and Ravindra Kumar Purwar. (2012) "Sql injections – a hazard to webapplications." International Journal of Advanced Research in. 2012.pages 42- 45
- Thomas R. and R. Sandhu, (1998). "Task-based authorization controls (tbac) models for active and enterprise-oriented authorization management," Database Security XI: Status and Prospects, T.Y. Lin and S. Qian, eds., pp. 262-275, 1998.
- Khodjayeva Mavluda Sabirovna (2021) "Creation of 3d models of historical monuments application of digital technologies. Academia" An International Multi disciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Peer Reviewed Journal). ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 10, October 2021 Impact Factor: SJIF 2021. 7.492 Ctp.1261-1268.
- Xodjayeva Mavluda (2019) Zamonaviy axborot texnologiyalari asosida web saytlarni optimallashtirish («Yetti pir» web sayti misolida) Islom ziyosi O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi – T.2019. - № 1. 86-88.
- M. Malik and T. Patel (2016) "Database security attacks and control methods" International Journal of Information Technology , vol. 6, no. ½, pp. 175- 183, 2016
- H. Kothari, A. Suwalka and S. Kumar. "Various database attacks, approaches and countermeasures to database security". International Journal of Advance Research in Computer Science and Management Studies, vol. 5, no. 5, pp. 357-362, 2019.
- H. Kothari, A. Suwalka and S. Kumar. "Various database attacks, approaches and countermeasures to database security". International Journal of Advance Research in Computer Science and Management Studies, vol. 5, no. 5, pp. 357-362, 2019.
- H. Kothari, A. Suwalka and S. Kumar. "Various database attacks, approaches and countermeasures to database security". International Journal of Advance Research in Computer Science and Management Studies, vol. 5, no. 5, pp. 357-362, 2019.
- H. B. Hashim (2018) "Challenges and security vulnerabilities to impact on database system". Al-Mustansiriyyah Journal of Science, vol. 29, no. 2, p. 117, 2018.
- Xodjayeva Mavluda (2021) "Adiblar xiyoboni" web saytini ishlab chiqishda ma'lumotlar bazasi xavfsizligi muammolari" Islom tafakkuri (maxsus son) 2021, 123-125bb.
- Tuopova Nilufar Ilxomovna, Khodjayeva Mavluda Sabirovna, (2021), "The strategy of training high level educational and practical skilled young information technology generation" International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT). Vol. 27 No. 1 Junio 2021, pp.18-22
- N.I Tuopova, M.S Xo'djayeva, (2021) "YUuqori darajadagi bilim va ko'nikmaga ega axborot texnologiyalari soha vakillarini tayyorlash strategiyasi", Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot

REFERENCES

- Texnologiyalari Universitetida Respublika ilmiy-texnik anjumani ma'ruzlar to'plami 1-qism, 182-183 bb. Toshkent 2021.
25. Turopova Nilufar Ilxomovna (2021), "Yoshlar axborot va psixologik xavfsizligiga tahdid soluvchi internet va kompyuter o'yinlari", "O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi diniy-ma'rifiy sohani raqamlashtirish va axborot xavfsizligini ta'minlash muammolari respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami" 93-95 bb. Toshkent 2021.
 26. Sweet R. Lodha, S. Dhane (2014) "Web database security algorithms" International Journal of Advance Research in Computer Science and Management Studies. Volume 2, Issue 3, 2014-Mart.
 27. Mubina Malik and Trisha Patel (2016) "Database security – attacks and control methods" International Journal of Information Sciences and Techniques (IJIST) Vol.6, No.1, March 2016.
 28. Young Wang, Jinsong Xi, Tong Cheng (2021) "The overview of database security threats' solutions: traditional and machine learning" Journal of Information Security: [Vol.12 No.1, January 2021](#)
 29. Singh, Neha, and Ravindra Kumar Purwar (2012) "Sql injections – a hazard to webapplications." International Journal of Advanced Research in. 2012.pages 42- 45
 30. Almutairi, Abdulrahman Hamed, and Abdulrahman Helal Aluwaili (2012) "Security in database security. Global journal of computer science & technology network, web security". 2012. pages 9-13
 31. I.A. Karimov (2008) "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" Toshkent "Ma'naviyat" 2008. – B. 52-53
 32. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prizedenti I.A. Karimov (2008) "Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor" T.O'zbekiston. 2008. – B. 17-18
 33. E. Bertino, C. Bettini, E. Ferrari, and P. Samarati (1998) "An access control model supporting periodicity constraints and temporal reasoning," ACM Trans. Database Systems, vol. 23, no. 3, pp. 231-285, 1998.
 34. Svetlana Gordiyenko (2015) "Website development process: full guide in 7 steps". Available at: <https://xbsoftware.com/blog/website-development-process-full-guide/>
 35. C. Odirichukwa and P.O. Asagba (2018) "Security concept in web database development and administration a review perspective". 2017 IEEE 3rd International Conference Electro-Technology National Development NIGERCON 2017,
 36. S. Singh and R.K. Rai (2014) "A review report on security threats and challenges" 8th International Symposium Digital Forensics Secur. ISDFS 2020, vol. 3, no. 5, pp. 3215-3219, 2014
 37. Четирко Юрий (2003) Прогораммирование на языке PHP. 2003.
 1. Almutairi, Abdulrahman Hamed, and Abdulrahman Helal Aluwaili (2012) "Security in database security.global journal of computer science & technology network, web security." 2012. pages 9-13.
 2. Boyens C., G'unther O (2002) "Trust is not enough: privacy and security in asp and web service environments." In: Sixth East-European Conference on Advances in Databases and Information Systems. Volume 2435 of Lecture Notes In Computer Science. (2002)
 3. Duraeva Rano Bahrambekovna, Xodjayeva Mavlyuda, Kabulov Rustam, Alimjon Dadamuhamedov, Mukhammadiev Alisher "Personality-oriented learning technologies" (2019) International Journal of Recent Technology and Engineering (IJRTE) ISSN: 2277-3878, Volume-8 Issue-4, November 2019
 4. Singh, Neha, and Ravindra Kumar Purwar. (2012) "Sql injections – a hazard to webapplications." International Journal of Advanced Research in. 2012.pages 42- 45
 5. Thomas R. and R. Sandhu, (1998). "Task-based authorization controls (tbac) models for active and enterprise-oriented authorization management," Database Security XI: Status and Prospects, T.Y. Lin and S. Qian, eds., pp. 262-275, 1998.
 6. Xodjayeva Mavluda (2019) Optimization of web sites with the help of modern information technologies (on the example of the web site «YETTI PIR».UZ) // *The Light of Islam*. Vol. 2019. Iss. 1. Article 16.
 7. Khodjayeva Mavluda Sabirovna (2021) "Creation of 3d models of historical monuments application of digital technologies. Academicia" An International Multi disciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Peer Reviewed Journal). ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 10, October 2021 Impact Factor: SJIF 2021. 7.492 Ctp.1261-1268.
 8. M. Malik and T. Patel (2016) "Database security attacks and control methods" International Journal of Information Technology , vol. 6, no. ½, pp. 175- 183, 2016
 9. H. Kothari, A. Suwalka and S. Kumar. "Various database attacks, approaches and countermeasures to database security". International Journal of Advance Research in Computer Science and Management Studies, vol. 5, no. 5, pp. 357-362, 2019.
 10. H. Kothari, A. Suwalka and S. Kumar. "Various database attacks, approaches and countermeasures to database security". International Journal of Advance Research in Computer Science and Management Studies, vol. 5, no. 5, pp. 357-362, 2019.
 11. H. Kothari, A. Suwalka and S. Kumar. "Various database attacks, approaches and countermeasures to database security". International Journal of Advance Research in Computer Science and Management Studies, vol. 5, no. 5, pp. 357-362, 2019.
 12. H. Kothari, A. Suwalka and S. Kumar. "Various database attacks, approaches and countermeasures to database security". International Journal of Advance Research in Computer Science and Management Studies, vol. 5, no. 5, pp. 357-362, 2019.
 13. H. Kothari, A. Suwalka and S. Kumar. "Various database attacks, approaches and countermeasures to database security". International Journal of Advance Research in Computer Science and Management Studies, vol. 5, no. 5, pp. 357-362, 2019.
 14. H. Kothari, A. Suwalka and S. Kumar. "Various database attacks, approaches and countermeasures to database security". International Journal of Advance Research in Computer Science and Management Studies, vol. 5, no. 5, pp. 357-362, 2019.
 15. H. Kothari, A. Suwalka and S. Kumar. "Various database attacks, approaches and countermeasures to database security". International Journal of Advance Research in Computer Science and Management Studies, vol. 5, no. 5, pp. 357-362, 2019.
 16. H. Kothari, A. Suwalka and S. Kumar. "Various database attacks, approaches and countermeasures to database security". International Journal of Advance Research in Computer Science and Management Studies, vol. 5, no. 5, pp. 357-362, 2019.
 17. H. Kothari, A. Suwalka and S. Kumar. "Various database attacks, approaches and countermeasures to database security". International Journal of Advance Research in Computer Science and Management Studies, vol. 5, no. 5, pp. 357-362, 2019.
 18. H. Kothari, A. Suwalka and S. Kumar. "Various database attacks, approaches and countermeasures to database security". International Journal of Advance Research in Computer Science and Management Studies, vol. 5, no. 5, pp. 357-362, 2019.
 19. H. Kothari, A. Suwalka and S. Kumar. "Various database attacks, approaches and countermeasures to database security". International Journal of Advance Research in Computer Science and Management Studies, vol. 5, no. 5, pp. 357-362, 2019.

20. and Management Studies, vol. 5, no. 5, pp. 357-362, 2019.
21. H. B. Hashim (2018) "Challenges and security vulnerabilities to impact on database system". Al-Mustansiriyah Journal of Science, vol. 29, no. 2, p. 117, 2018.
22. Xodjayeveva Mavluda (2021) "Adiblar xiyoboni" web saytini ishlab chiqishda ma'lumotlar bazasi xavfsizligi muammolari" Islom tafakkuri (maxsus son) 2021, 123-125bb.
23. Turopova Nilufar Ilxomovna, Khodjayeveva Mavluda Sabirovna, (2021), "The strategy of training high level educational and practical skilled young information technology generation" International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT). Vol. 27 No. 1 Junio 2021, pp.18-22
24. Turopova Nilufar Ilxomovna (2021), "Yoshlar axborot va psixologik xavfsizligiga tahdid soluvchi internet va kompyuter o'yinlari", "O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi diniy-ma'rifiy sohani raqamlashtirish va axborot xavfsizligini ta'minlash muammolari respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami" 93-95 bb. Toshkent 2021.
25. Sweety R. Lodha, S. Dhane (2014) "Web database security algorithms" International Journal of Advance Research in Computer Science and Management Studies. Volume 2, Issue 3, 2014-Mart.
26. Mubina Malik and Trisha Patel (2016) "Database security – attacks and control methods" International Journal of Information Sciences and Techniques (IJIST) Vol.6, No.1, March 2016.
27. Young Wang, Jinsong Xi, Tong Cheng (2021) "The overview of database security threats' solutions: traditional and machine learning" Journal of Information Security: [Vol.12 No.1, January 2021](#)
28. Singh, Neha, and Ravindra Kumar Purwar (2012) "Sql injections – a hazard to webapplications." International Journal of Advanced Research in. 2012, pages 42- 45
29. Almutairi, Abdulrahman Hamed, and Abdulrahman Helal Aluwaili (2012) "Security in database security. Global journal of computer science & technology network, web security". 2012. pages 9-13
30. I.A. Karimov (2008) "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" Toshkent "Ma'naviyat" 2008. – B. 52-53
31. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prizedenti I.A. Karimov (2008) "Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor" T.O'zbekiston. 2008. – B.
32. E. Bertino, C. Bettini, E. Ferrari, and P. Samarati (1998) "An access control model supporting periodicity constraints and temporal reasoning," ACM Trans. Database Systems, vol. 23, no. 3, pp. 231-285, 1998..
33. Svetlana Gordiyenko (2015) "Website development process: full guide in 7 steps". Available at: <https://xbsoftware.com/blog/website-development-process-full-guide/>
34. C. Odirichukwa and P.O. Asagba (2018) "Security concept in web database development and administration a review perspective". 2017 IEEE 3rd International Conference Electro-Technology National Development NIGERCON 2017, vol. 2018-January pp. 383-391, 2018
35. S. Singh and R.K. Rai (2014) "A review report on security threats and challenges" 8th International Symposium Digital Forensics Secur. ISDFS 2020, vol. 3, no. 5, pp. 3215-3219, 2014
36. S. Singh and R.K. Rai (2014) "A review report on security threats and challenges" 8th International Symposium Digital Forensics Secur. ISDFS 2020, vol. 3, no. 5, pp. 3215-3219, 2014
37. Chetirko Yuriy (2003) Programirovaniye na yazike php. 2003.
38. M. Malik and T. Patel. "Database security attacks and control methods". International Journal of Information Technology, vol. 6, no. 1/2, pp. 175-183, 2016
41. M. Malik and T. Patel. "Database security attacks and control methods". International Journal of Information Technology, vol. 6, no. 1/2, pp. 175-183, 2016
42. M. Malik and T. Patel. "Database security attacks and control methods". International Journal of Information Technology, vol. 6, no. 1/2, pp. 175-183, 2016